

1. Qaysi son 12 ga bo'linmaydi?

A) 60

B) 18

C) 48

D) 24

2. Hisoblang: $5894 - 2608 =$

A) 3276

B) 3286

C) 3294

D) 3296

3. x ning qiymatini hisoblang:

$$14 + 35 : 7 - 2 = x$$

A) 5

B) 17

C) 21

D) 14

4. Nuqtalar o'rniga ifodani qanoatlantiradigan belgini qo'ying.

$$9 + 5 \dots 18 - 5$$

A) \leq

B) $=$

C) $<$

D) $>$

5. * o'rniga qaysi raqam qo'yilsa to'g'ri tenglik hosil bo'ladi?

$$26 * 8 - 937 = 1701$$

A) 2

B) 3

C) 0

D) 6

6. O'yinchoq zavodida har bir ishchi kuniga 2 ta koptok ishlab chiqaradi. Zavodda 14 kunda 20 ta ishchi nechta koptok ishlab chiqaradi?
- A) 36
B) 40
C) 280
D) 560
7. Ali tug'ilgan paytda 4 kg 110 g edi. Umid tug'ilganida 3 kg 940 g edi. Bolalarning tug'ilgan paytdagi umumiy og'irligi qancha bo'lgan?
- A) 7 kg 950 g
B) 8 kg 50 g
C) 7 kg 50 g
D) 6 kg 50 g
8. Aziza dushanba kuni bog'ni sug'orish uchun $12\frac{3}{4}$ litr suv ishlatdi. U seshanba kuni $15\frac{1}{4}$ litr suv ishlatdi. Aziza dushanba va seshanba kunlari bog'ni sug'orish uchun jami necha litr suv ishlatgan?
- A) 27 litr
B) $27\frac{1}{2}$ litr
C) 28 litr
D) $28\frac{1}{4}$ litr


9. Aylananing qancha qismi bo‘yalgan?

A) $\frac{1}{4}$

B) $\frac{2}{6}$

C) $\frac{2}{4}$

D) $\frac{6}{8}$



10. Tohirda 21 ta Zuhrada 27 ta daftar bor. Zuhra daftarlarining qancha qismini Tohirda bersa, ularning daftarlari soni teng bo‘ladi?

A) $\frac{1}{7}$

B) $\frac{1}{9}$

C) $\frac{7}{9}$

D) $\frac{6}{27}$

B BO'LIM

11. Δ va ∇ larni toping.


$$2\nabla + 7 = 13 \quad \Delta + \nabla = 9$$

- A) 6 va 3
- B) 4 va 5
- C) 3 va 6
- D) 9 va 13

12. Omborda 58 quti sharbat bor. Agar har bir qutida 24 tadan qadoqlangan sharbat bo'lsa, omborda qancha qadoqlangan sharbat bor?

- A) 1392
- B) 1362
- C) 1292
- D) 1262

13. P nuqta son o'qining qaysi qismida joylashgan?



- A) $\frac{1}{8}$
- B) $\frac{1}{5}$
- C) $\frac{3}{4}$
- D) $\frac{7}{8}$

14. Behzodda taxta bo'laklari solingan 2 ta quti bor edi. Har bir qutida 100 tadan taxtachalar bor edi. U har bir qutidagi taxtachalarning $\frac{1}{5}$ qismidan foydalanib, uycha qurdi. Behzod uycha qurish uchun qancha taxtachadan foydalangan?
- A) 50
 - B) 40
 - C) 30
 - D) 20
15. Ko'lda 28 ta faqat oq o'rdak suzib yurgan edi. Ko'lga oq o'rdaklar sonidan ikki marta ko'p sondagi jigarrang o'rdaklar uchib kelib qo'ndi. So'ng oq o'rdaklarning yarmi uchib ketdi. Ko'lda jami nechta o'rdak qoldi?
- A) 14
 - B) 28
 - C) 56
 - D) 70
16. Nurbekda 72 000 so'm pul bor edi. U-pulning $\frac{1}{3}$ qismiga olma va qolganiga o'rik sotib oldi. Agar 1 kg olmaning narxi 3 000 so'm va 1 kg o'rikning narxi 4 000 so'm bo'lsa, u necha kilogramm olma va o'rik sotib olgan?
- A) 9
 - B) 12
 - C) 18
 - D) 20

17. Aziza bitta pishiriq uchun piyoladagi shakarning $\frac{2}{3}$ qismidan foydalandi. Quyidagi rasmlarning qaysi birida Aziza to'rtta pishiriq pishirishi uchun foydalangan shakar miqdori ko'rsatilgan? Aziza foydalangan umumiy shakar miqdori $4 \cdot \frac{2}{3}$ ga teng.

A) 

B) 

C) 

D) 

18. Savolga javob berish uchun quyidagi tenglikdan foydalaning.

$$7 \cdot 3092 = \nabla$$

Qaysi ifoda ∇ ni to'liq ifodalaydi.

- A) $(7 \cdot 30) + (7 \cdot 92)$
 - B) $(7 \cdot 30) + (7 \cdot 90) + (7 \cdot 2)$
 - C) $(7 \cdot 3000) + (7 \cdot 90) + (7 \cdot 2)$
 - D) $(7 \cdot 3000) + (7 \cdot 900) + (7 \cdot 20)$
- 19.** Binoning ikkinchi qavatidan uchinchi qavatigacha bo'lgan masofa 4 metr. Shu binoning to'rtinchi qavatidan sakkizinchi qavatigacha bo'lgan masofa necha metrga teng?
- A) 12
 - B) 32
 - C) 16
 - D) 20
- 20.** Adiba soat 7:35 da istirohat bog'iga bordi. U bog'da kuchugi bilan 35 minut sayr qildi va 15 minut o'ynadi. Adiba soat nechchida bog'dan chiqib ketgan?
- A) 8:00
 - B) 8:25
 - C) 8:30
 - D) 8:35

C BO'LIM


21. Samira 6 dan 47 gacha bo'lgan sonlarni yozib chiqdi. Samira bu sonlarni yozib chiqish davomida 2 raqamidan necha marta foydalangan?

- A) 11
- B) 12
- C) 13
- D) 14

22. Mehmonxonada 12 ta xona bor. Har bir xonada 2 ta deraza bor. Kechqurun 18 ta derazaning chiroqlari yongan bo'lsa, nechta xonada chiroq yonmagan?

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5

23. To'g'ri to'rtburchakdagi bo'yalgan qismning yuzasini toping.



- A) 160
- B) 60
- C) 48
- D) 80

24. Malikada 5 ta qora, 3 ta ko'k va 4 ta qizil qalamlar bor. Jami qalamlarning qancha qismini qora va ko'k qalamlar tashkil etadi?

A) $\frac{5}{12}$

B) $\frac{2}{3}$

C) $\frac{3}{4}$


D) $\frac{3}{5}$

25. Rahim shanba kuni soat 14:00 da Buxoraga borish uchun chipta sotib oldi. Uning poyezdi keyingi chorshanba soat 8:00 da jo'naydi. Rahimning poyezdi jo'nashiga necha soat qolgan?

- A) 96 soat
- B) 72 soat
- C) 90 soat
- D) 68 soat

26. Kvadratdan tashqaridagi sonlar yig'indisi nechaga teng?

- A) 60
- B) 90
- C) 45
- D) 100



27. Jamshid 3030 ni hosil qilish uchun bir qancha 3 raqamini qo'shib chiqdi.

$$3 + 3 + 3 + \dots + 3 = 3030$$

Agar Jamshid qo'shib chiqqan 3 raqamlari sonidan ikki marta ko'p sondagi 2 raqamlarini qo'shib chiqsa yig'indi nechaga teng bo'ladi?

- A) 1010
- B) 3030
- C) 4040
- D) 5050

28. So'roq belgisi o'rnida turishi zarur bo'lgan sonlar yig'indisini toping.



- A) 10
- B) 20
- C) 25
- D) 30

29. Sonlar ketma-ketligining keyingi uchta sonini toping.

441, 445, 452, 462, 475, ____, ____, ____

- A) 490, 508, 526
- B) 490, 508, 529
- C) 491, 510, 529
- D) 491, 510, 532

30. Anora, Salim, Javlon va Aziz yaqin do‘st. Anora Salimdan 3 yosh va Javlondan esa 6 yosh katta. Aziz esa 36 yosh va u Javlondan 3 yosh katta bo‘lsa, to‘rtta do‘stning yoshlari yig‘indisini toping?

- A) 124
- B) 144
- C) 152
- D) 156